XALQ DEPUTATLARI GURLAN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 1-fevral VII-6-9-12-171-K/25 Gurlan tumani

Xalq deputatlari Gurlan tumani kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi Gurlan tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2025-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash haqidagi VII-5-028-12-171-K/24-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2024-yil 15-noyabrdagi 24-117005-sonli, viloyat soliq boshqarmasi va viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 4-dekabrdagi qo‘shma xatlari hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Gurlan tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2024-yil 15-noyabrdagi 24-117005-sonli, viloyat soliq boshqarmasi va viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 4-dekabrdagi qo‘shma xatlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mahallalar iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab 2025-yil 1-yanvardan yuridik va jismoniy shaxslar uchun belgilangan yer solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari 1, 2-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda yer solig‘ining amaldagi stavkalari 1,2 baravarga indeksatsiya qilinishi inobatga olinsin.

Xalq deputatlari Gurlan tumani kengashining 2024-yil 27-dekabrda Gurlan tumanida yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2025-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash haqida VII-5-028-12-171-K/24-sonli qarorning 2-ilovasi mahallalar joylashuvi to‘g‘irlangan 2-ilova bilan almashtirilsin.

3. Yuridik shaxslar bo‘yicha yer solig‘i soliq stavkalari muhokamaga qo‘yilgan paytida mahallalarni joylashish tartibi o‘zgarib ketganligi sababli belgilangan tartibda o‘zgartirish kiritishga rozilik berilsin.

4. Xalq deputatlari Gurlan tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-5-028-12-171-K/24-sonli qarorining 2-ilovasi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Mazkur qaror 2025-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kirishi belgilab qo‘yilsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Gurlan tumani Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi N.Azimjonov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi  O‘RAZBAYEV RUSLAN XAJIBAYEVICH